

MATEMATIKA FANINING IJTIMOIIY-SIYOSIY AHAMIYATI VA PEDAGOG XODIMLARINING MAHORATI

Kuchkarova Shahnoza Bahodirovna

Urganch shahar 13-son UO‘TM

Matematika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Bu maqolada O‘zbekistonda matematika fani borasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida hamda matematika fani pedagoglari uchun zarur bo‘ladigan ko‘nikmalar borasida fikr yuritilgan. Maqolada bildirilgan subyektiv fikrlar ilmiy asoslanib, xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Matematika, pedagogik mahorat, zamonaviy pedagogik texnologiya, malakaviy ko‘nikma.

Ayni davrda ta‘lim rivoji bilan birga pedagog xodimlarga ham qo‘yiladigan talablar o‘zgarmoqda, ortmoqda. Bugunning yoshlari kechagi eski, an‘anaviy ta‘lim berish uslubini umuman qabul qilolmaydi. Chunki jamiyatimizning har tomonlama rivojlanishi, aholining yashash turmush tarzining tubdan o‘zgarishi, texnologiyalarning har bir sohaga shiddat bilan kirib kelishi shuni taqozo qilmoqda. Jumladan, ta‘lim tizimiga ham innovatsion texnologiyalar kirib keldiki, yoshlarning ham bu kabi texnologiyalar asosida dars o‘tishga ishtiyoqlari baland. Shundan kelib chiqqan holda, O‘zbekistonda ham ta‘lim tizimiga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish jadal sur‘atlarda amalga oshirilmoqda. Jumladan, yurtboshimiz, muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning: “Hayotimizga katta kuch bo‘lib kirayotgan yangi avlodimizni kamol toptirish uchun davlatimiz tomonidan barcha imkoniyatlar safarbar etiladi” deganlari bejiz emas.¹³

Yuqoridagi fikrlarimizga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, hozirgi davr pedagoglari zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi

¹³ Sh.M.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.– T.:“O‘zbekiston”, 2017. 25.

hamda yangi interfaol metodlardan xabardor bo‘lmog‘i lozim. Ayniqsa, matematika fani haqida gap ketganda, bu boradagi fikrlarimiz naqadar dolzarb ko‘rinish kasb etishini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekiston respublikasi prezidentining “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida quyidagilar aytib o‘tilgan:

“Mamlakatimizda matematika 2020-yildagi ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. O‘tgan davr ichida matematika ilm-fani va ta’limini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirildi:

birinchidan, ilg‘or ilmiy markazlarda faoliyat yuritayotgan vatandosh matematik olimlarning taklif qilinishi va xalqaro ilmiy-tadqiqotlar olib borilishi uchun zarur shart-sharoit yaratildi;

ikkinchidan, xalqaro fan olimpiadalarida g‘olib bo‘lgan yoshlarimiz va ularning murabbiy ustozlari mehnatini rag‘batlantirish tizimi joriy etildi;

uchinchidan, oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqotlarning o‘zaro integratsiyalashuvini ta’minlash maqsadida Talabalar shaharchasida Fanlar akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining (keyingi o‘rinlarda — Institut) yangi va zamonaviy binosi barpo etildi. Matematika sohasidagi fundamental tadqiqotlarni moliyalashtirish hajmi bir yarim barobarga oshirildi, budjet mablag‘lari hisobidan superkompyuter, zamonaviy texnika va asbob uskunalari xarid qilindi;

to‘rtinchidan, ilmiy darajali kadrlarni tayyorlashning birlamchi bosqichi sifatida stajor-tadqiqotlik instituti joriy etildi;

beshinchidan, ilm-fan sohasidagi ustuvor muammolarni tezkor bartaraf etish, fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish masalasini Hukumat darajasida belgilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri raisligida Fan va texnologiyalar bo‘yicha respublika kengashi tashkil etildi”.¹⁴

Qarorda ko‘rib o‘tganimizdek, matematika faniga bo‘lgan e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Bunga javoban esa pedagog xodimlardan o‘z kasbiga

¹⁴ O‘zbekiston respublikasi prezidentining, 07.05.2020 yildagi PQ-4708-sonli “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

mas’uliyat bilan yondoshishi, o‘zining malakaviy bilimlarini doimiy ravishda rivojlantirib borishi talab etiladi. Buyuk nemis pedagogi Adolf Disterverg o‘qituvchining doimiy ravishda fanlarni mutolaa qilish bilan shug‘ullanishi haqida gapirib, shunday degan edi: “O‘qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug‘ullanmog‘i lozim. Aks holda, u qurigan daraxt va toshga o‘xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bunday o‘qituvchidan hech qanday natija kutib bo‘lmaydi”. Zero, pedagoglarni suvga qiyos etish mumkin. Agar pedagog doimiy harakatda, izlanishda bo‘lsa, u mavjlanib oqayotgan toza va sof daryo kabidir. Agar pedagog izlanishdan, o‘z ustida ishlashdan to‘xtagan bo‘lsa, kirlangan, iflos ko‘lmak suvi kabi bo‘ladi. Pedagogik mahorat - o‘qituvchilarning shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo‘lib, o‘qituvchilarning ta’lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta’minlovchi faoliyatdir. U o‘z fanini mukammal bilgan, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarlikka ega bo‘lgan, O‘quvchilarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo‘llarini izlab topish uchun, amaliy faoliyat olib boradigan har bir o‘qituvchining kasbiy faoliyatida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo‘lish uchun o‘qituvchi o‘z o‘quv predmetini davr talablari asosida bilishi pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo‘lishi, hamda insoniylik, izlanuvchanlik va fidoyilikni o‘zida tarkib toptirishi lozim. I.P. Rachenko pedagogik mahoratni pedagogik san’atning bir qismi sifatida ta’riflab, shunday yozadi: “pedagogik mahorat deganda o‘qituvchining pedagogik-psixologik bilimlarni, kasbi) malaka va ko‘nikmalarni mukammal egallashi, o‘z kasbiga qiziqishi rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyasi, hayotga axloqiy-estetik munosabatda bo‘lishi, o‘z fikr-mulohazasiga ishonchi va qat’iy irodasi tushuniladi”.¹⁵

Zero, bu pedagoglar uchun aytilgan fikrlar matematika fani o‘qituvchilarining faoliyatida to‘la o‘z ifodasini topadi. Hozirgi davrda taraqqiy etgan, jamiyat rivojida

¹⁵ A. XOLIQOV. PEDAGOGIK MAHORAT. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2010-yil 21-oktyabridagi 396-sonli buyrug‘iga asosan 5140800 - “Pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘alishining talabalari (o‘quvchilari) uchun darslik sifatida tasdiqlangan. (Guvohnoma № 396-19). Toshkent. «IQTISOD-MOLIYA» 2011

muhim rol o‘ynaydigan sohalarni o‘zlashtirishda ham matematika fani asosiy tayanch vazifani bajaradi. Shunday ekan, bu fanni maktablardan boshlab chuqur o‘rgatish ertangi kun rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.–T.: “O‘zbekiston”, 2017. 25.

2. O‘zbekiston respublikasi prezidentining, 07.05.2020 yildagi PQ-4708-sonli “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

3. A. Xoliqov. Pedagogik mahorat. Toshkent. “Iqtisod-moliya”-2011.